

№	MUNDARIJA	Page
1.	YANGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASHNING MOLIYAVIY ZARURLIGI VA AHAMIYATI <i>Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	3
2.	ПРИМЕНЕНИЕ МСФО 17 В СТРАХОВОЙ СИСТЕМЕ УЗБЕКИСТАНА: ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ И ПОТЕНЦИАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ. АНАЛИЗ РЕЗЕРВОВ И ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ БАРЬЕРОВ <i>Баратова Динора Алишеровна</i>	6
3.	SUG'URTA POLISINI TANLASHDAGI MUAMMO VA AFZALLIKLAR <i>Yo'ldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	10
4.	O'ZBEKISTONDA "YASHIL SUG'URTA" MAHSULOTLARINI JORIY ETISH MASALALARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	13
5.	SUG'URTA TASHKILOTLARINING INVESTITSIIYA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Umarova Gulnora Akromovna</i>	16
6.	O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL TRANSPORT SUG'URTASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	18
7.	O'ZBEKISTONDA AVTOTRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASINING O'RNI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna, Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	20
8.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TIZIMI VA UNDAGI XAVFLAR <i>Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi, Akbaraliyeva Diyora</i>	22
9.	ПЕРСПЕКТИВЫ И БАРЬЕРЫ РАЗВИТИЯ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ (ТАКАФУЛ) В УЗБЕКИСТАНЕ <i>Мурадова Дилдора Абдусалимовна</i>	26
10.	YASHIL SUG'URTA TURLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI: ILMIY-NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV <i>Erkaboev Yorbek Boirbekovich</i>	31
11.	MILLIY SUG'URTA BOZORIDA INFORMATSION RISKLARNI SUG'URTALASHNI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xolbaev Azamat Yuldashovich</i>	34
12.	ПРЕИМУЩЕСТВА СТРАХОВАНИЕ И ЕГО РОЛЬ В ЭКОНОМИКЕ <i>Умарова Хуриида Олимжоновна</i>	38
13.	OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYALASH: HOMIYLIK MABLAG'LAG'LARIDAN FOYDALANISH <i>Dildora Bohodirovna Abdusattarova</i>	42
14.	SUVEREN KREDIT REYTING AGENTLIKLARINING BAHOLASH METODOLOGIYASIDAGI KAMCHILIKLARI TAHLILI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	45
15.	ЗЕЛЁНЫЕ ОБЛИГАЦИИ И КРЕДИТЫ: НОВЫЙ ВЕКТОР УСТОЙЧИВОГО РОСТА УЗБЕКИСТАНА <i>Гульмухамедова Дилбар Бахтиер кизи, Каримов Комилжон Хамидович</i>	48
16.	ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ПУТЬ К УСТОЙЧИВОМУ РАЗВИТИЮ СТРАНЫ <i>Гульмухамедова Дилбар Бахтиер кизи</i>	51

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLİYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYALASH: HOMIYLIK MABLAG'LAG'LARIDAN FOYDALANISH

Dildora Bohodirovna Abdusattarova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Soliq va soliqqa tortish" kafedrasida dotsenti
dildora@umich.edu

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss3/299

Annotatsiya: Mazkur maqola AQSH oliy ta'lim tizimidagi xayriya mablag'lari rolini yoritadi. Muallif Gates va Lumina jamg'armalarining vositachi tashkilotlar orqali moliyaviy siyosatga ta'sirini tahlil qiladi. Asosiy e'tibor adolat, barqarorlik va innovatsiyani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Xayriyalar oliygoh maqsadlariga mos bo'lishi, oshkorlikka asoslanishi va kam ta'minlangan talabalarni qo'llab-quvvatlashi lozim.

Kalit so'zlar: Xayriya, oliy ta'lim, endowment, adolat, barqarorlik, Gates jamg'armasi, Lumina jamg'armasi, oshkorlik

Abstract: This article investigates the role of philanthropy in U.S. higher education, focusing on its potential to promote justice, creativity, and sustainability. It examines the impact of foundations such as Gates and Lumina on financing strategies and policies via intermediate entities. The author contends that philanthropic support should connect with university aims, be open, and emphasize underrepresented groups. Recommendations include ethical investment, inclusive governance, and innovation funding.

Keywords: Philanthropy, higher education, endowments, equity, sustainability, Gates Foundation, Lumina Foundation, transparency

Абстрактный: Данная работа рассматривает роль филантропии в системе высшего образования США, акцентируя внимание на её значении для продвижения справедливости, устойчивости и инноваций. Автор анализирует влияние фондов Гейтса и Лумина на финансирование через посреднические организации. Подчеркивается необходимость прозрачности, этических инвестиций и соответствия филантропии миссии университетов.

Ключевые слова: Филантропия, высшее образование, эндаумент, справедливость, устойчивость, фонд Гейтса, фонд Лумина, прозрачность

Kirish (Введение/Introduction).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" asosida mamlakatda oliy ta'limda keng ko'lamli islohotlar boshlab yuborildi. Ushbu konsepsiyada oliy ta'lim muassasalarining o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga bosqichmabosqich o'tishi, kredit-modul tizimining joriy etilishi, va xalqaro reytinglarda yuqori o'rinni egallash kabi strategik vazifalar belgilangan. Bugungi kunga kelib, 30 dan ortiq universitetlar ushbu tizim asosida faoliyat yuritmoqda va moliyaviy mustaqillik sari dadil odimlamoqda.

O'zini o'zi moliyalashtirishga o'tayotgan oliy ta'lim muassasalari davlat budjeti mablag'laridan tashqari, ta'lim xizmatlari uchun kontrakt to'lovlari, grantlar, ilmiy loyihalar, xususiy sektor bilan hamkorlik, va infratuzilma xizmatlaridan tushadigan daromadlar kabi turli manbalarni izlashga majbur bo'lmoqda. Shu o'rinda, xorijiy tajribalar asosida universitetlar moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda endowment fondlar va homiylik mablag'larini jalb etish orqali moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishga e'tibor qaratmoqda. Bu jarayon oliy ta'limda moliyaviy va boshqaruv mustaqilligini kuchaytiradi, raqobatbardoshlikni oshiradi va sifatli ta'limni rag'batlantiradi.

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini kuchaytirishda homiylik mablag'larining o'rni, ularni samarali jalb etish va boshqarish yo'llari, shuningdek AQSH tajribasi asosida endowment tizimining mohiyati hamda O'zbekiston universitetlari uchun moslashuv imkoniyatlari tahlil qilinadi. Philanthropik (homiylik) yondashuvlar orqali ta'limga sarmoya kiritish, ayniqsa kam ta'minlangan talabalarga imkoniyatlar yaratish, innovatsion dasturlarni qo'llab-quvvatlash va universitetlarning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlash uchun muhim vosita sifatida qaratilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. (Обзор литературы / Literature review).

So'nggi yillarda dunyo bo'yicha oliy ta'lim muassasalari (OTMLar) davlat budjeti hisobidan ajratiladigan mablag'larning qisqarishi hamda talabalarning ortib borayotgan soni tufayli jiddiy moliyaviy muammolarga

duch kelmoqda [10]. Ushbu holat OTMLar uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zaruratini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, xayriya (filantropiya) va homiylik kabi nodavlat manbalar ta'lim sifatini saqlab qolish va unga bo'lgan kirishni ta'minlashda muhim alternativalar sifatida shakllanmoqda.

Xalqaro tajribada OTMLar foydasiga xususiy sektor tomonidan beriladigan xayriya mablag'larining hajmi sezilarli darajada oshgan. Masalan, AQShda 2017-yilda xayriya mablag'lari umumiy miqdori 58,9 milliard AQSh dollariga yetgan bo'lib, uning deyarli 70 foizi oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirilgan [9]. Ko'pincha yirik jamg'armalar yoki yuqori daromadli shaxslar tomonidan taqdim etiladigan ushbu mablag'lar nafaqat moliyaviy imkoniyatlarni kengaytiradi, balki ta'lim siyosatini ham shakllantiradi, ayniqsa, natijaviylikka asoslangan yondashuvlar bilan uyg'unlashganda [6].

Bill va Melinda Gates jamg'armasi, shuningdek, Lumina jamg'armasi kabi tashkilotlar tomonidan moliyalashtirilgan vositachi tashkilotlarning faoliyati xayriyaning ta'lim siyosati va islohotlariga qanday ta'sir ko'rsatishini yaqqol namoyon etadi [7]. Bunday tashkilotlar donor ustuvorliklarini oliy ta'lim muassasalarining amaliy strategiyalariga aylantiruvchi vositachilar sifatida faoliyat yuritadi, ayniqsa ta'limga kirish imkoniyati va ijtimoiy tenglikni ta'minlash yo'nalishlarida.

Boshqa tomondan, davlat OTMLari moliyaviy yukni talabalar va ularning oilalari hamda tashqi homiylik zimmasiga o'tkazayotgan bir vaqtda, dunyo bo'ylab "xarajatlarni bo'lishish" modelining ommalashuvi kuzatilmoqda [10]. Bunday tendensiya grantlar, endowment jamg'armalari va xayriya mablag'lari orqali moliyalashtirish tizimining shakllanishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston tajribasida esa 2030-yilgacha oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan asosiy yo'nalishlardan biri universitetlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlashdan iborat bo'lib, bunda davlat budjetidan to'liq moliyalashtirishdan aralash resurslarga, jumladan, homiylik va xayriya mablag'laridan foydalanishga o'tish ko'zda tutilgan [12]. Shu bois, barqaror va diversifikatsiyalashgan moliyalashtirish

mexanizmlarini yo'lga qo'yish xalqaro standartlarga moslashish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish va keng qamrovli ta'limga erishish uchun zaruratga aylangan.

Xayriya mablag'laridan samarali foydalanish uchun ularning boshqaruvi axloqiy tamoyillarga asoslangan, shaffof va OTMlarning strategik maqsadlariga mos keladigan tarzda tashkil etilishi lozim [4]. Universitetlardan bu mablag'lar qanday yo'naltirilayotgani, ularning ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlik kabi qadriyatlarga qanchalik mos ekanligi haqida muntazam hisobotlar e'lon qilinishi talab qilinmoqda [2].

Xulosa qilib aytganda, homiylik va xayriya mablag'lari orqali moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash nafaqat moliyaviy ehtiyojlar tufayli, balki OTMlarning barqaror, inklyuziv va innovatsion tizimlarga aylanishida strategik omil sifatida qaralmoqda. Bu ayniqsa islohotlar jarayonidagi O'zbekiston uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot usullari (Методология/Methodology).

Tadqiqotni amalga oshirishda qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты. Analysis and results).

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, rivojlangan davlatlar oliy ta'lim muassasalari moliyalashtirishni diversifikatsiya qilishda endowment jamg'armalari va filantropiya mablag'laridan samarali foydalanmoqda. AQShdagi Gonzaga University, Kansas University va Michigan State University misollari buni yaqqol tasdiqlaydi: ushbu universitetlarda endowment zaxiralari umumiy byudjeting qariyb yarmiga yaqin ulushini tashkil etadi, filantropiya tushumlari esa yil-lik operatsion xarajatlarning o'n foizdan ortiq qismini qoplaydi. Tahlil shuni ham aniqladi ki, zamonaviy xayriya mexanizmlari – masalan, unrestricted giving va matching gifts – universitetlar strategik maqsadlariga mos ravishda moliya bazasini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Donorlar bilan uzoq muddatli munosabatlar va ularning institut missiyasiga uyg'unlik darajasi filantropik tushumlar miqdori hamda barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari ushbu tajribani O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlarini ham yoritadi. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida endowment jamg'armalarini bosqichma bosqich shakllantirish, bitiruvchilar va mahalliy biznes bilan barqaror hamkorlik o'rnatish, shuningdek, filantropik badallarga soliq imtiyozlari berish orqali moliyalashtirishni diversifikatsiya qilish taklif etiladi. Shu bilan birga, muammolar ham aniqlandi: huquqiy asoslarning yetarli emasligi, moliyaviy shaffoflik standartlarining noaniqligi hamda aholining filantropiya madaniyati pastligi jarayonni sekinlashtirishi mumkin. Bunday to'siqlarni bartaraf etish uchun "Endowment va Filantropiya to'g'risida" maxsus qonun ishlab chiqish, oliy ta'lim muassasalarida ochiq hisobot tizimini joriy etish va jamoatchilik bilan muloqotni kuchaytirish muhim ekanini asoslab berildi.

Yakunda, tadqiqot O'zbekiston oliy ta'limi uchun diversifikatsiyalangan moliyalashtirish modelini yaratish bo'yicha ilmiy amaliy tavsiyalarni shakllantirdi. Jumladan, universitetlar filantropiya siyosatini belgilovchi "Endowment siyosat kodeksi"ni qabul qilishi, kraudfanding va mikrodonorlik platformalarini rivojlantirishi, shuningdek, milliy reyting tizimida xayriya va endowment ko'rsatkichlarini inobatga olish orqali raqobat muhitini kuchaytirishi taklif qilindi. Mazkur natijalar oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, ijtimoiy adolatni kengaytirish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishda muhim o'rin tutadi.

Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda filantropik manbalar – ya'ni homiylik mablag'lari va endowment fondlari – asosiy rol o'ynayotqanda. AQShdagi ilg'or universitetlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bunday mablag'lar oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, ijtimoiy adolatni kengaytirish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishda muhim o'rin tutadi.

Gonzaga University misolida, 2023-yil holatiga ko'ra, universitetning jami aktivlari 1,08 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, shundan 485,8 million dollari uzoq muddatli investitsiyalardir. Ushbu investitsiyalarning asosiy qismini endowment jamg'armasi tashkil etadi, bu esa universitetga yiliga 14,5 million dollarga yaqin mablag'ni talabalar moliyaviy yordami uchun yo'naltirish imkonini beradi [5]. Qizig'i shundaki, bu jamg'armalarning taqsimoti aniqlik bilan belgilangan: 30% alternativ investitsiyalar, 21% AQSh aktsiyalari, va 19% xalqaro aktsiyalar [5].

Kansas University ham homiylik mablag'laridan faol foydalanadi. Universitet 2023-yilda filantropik tashkilotlar, bitiruvchilar va maxsus grantlar hisobidan umumiy 257 million dollarga yaqin mablag' jalb qilgan. Ushbu mablag'lar asosan stipendiyalar, tadqiqotlar va kapital qurilish loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan [11].

Michigan State University (MSU) esa o'zining "University Advancement" dasturi orqali donorlar bilan barqaror munosabatlar o'rnatgan. Universitet har yili millionlab dollarlik homiylik mablag'larini jalb qiladi. Masalan, 2022-yilgi budjetda endowmentdan olingan yillik daromad 6,5% atrofida bo'lgan va bu mablag'ning bir qismi maxsus fakultetlar, talabalar grantlari va tadqiqot loyihalariga yo'naltirilgan [8].

Bu uch universitet tajribasi shuni ko'rsatadiki, filantropiya orqali jalb qilingan mablag'lar nafaqat qo'shimcha moliyaviy manba sifatida, balki oliy ta'lim tizimini sifatli rivojlantirishning strategik asosi sifatida qaralmoqda. Bunday yondashuvlar O'zbekistonda ham endowment fondlarini joriy etish, korporativ homiylik bilan uzoq muddatli hamkorlik tuzish, va bitiruvchilarni jalb etish bo'yicha yangi imkoniyatlarni ochadi.

1-jadval.

AQSh universitetlari byudjeti va xayriya manbalari¹

Universitet nomi	Umumiy byudjet (USD)	Endowment hajmi (USD)	Yillik (philanthropy) daromadi (USD)	Xayriya	Asosiy yo'nalishlar
Gonzaga University	293000000	485800000	37625000		Akademik infratuzilma, talabalar xizmatlari
Kansas University	1320000000	2100000000	117700000		Ijtimoiy stipendiyalar, infratuzilma
Michigan State University	3080000000	3780000000	133000000		Tibbiy tadqiqotlar, laboratoriyalar, grantlar

Mablag' universitetlar web saytlari ma'lumotlari asosida usulif tomonidan tayyorlandi

Ushbu jadvalda uchta yirik AQSh universitetining moliyaviy holati, xususan umumiy byudjeti, endowment (doimiy fond) hajmi, yillik xayriya (philanthropy) tushumlari va mablag' yo'naltiriladigan asosiy sohalar ko'rib chiqildi. Jadvaldan quyidagi muhim xulosalarni chiqarish mumkin:

Moliyaviy quvvat jihatidan eng katta byudjetga ega universitet — Michigan State University (MSU) bo'lib, uning umumiy yillik byudjeti 3,08 milliard dollarni tashkil etadi. Bu raqam Kansas University (1,32 milliard dollar) va ayniqsa Gonzaga University (293 million dollar) byudjetidan ancha yuqori. Ushbu tafovut MSUning ko'lamli faoliyati, yirik ilmiy-tadqiqot markazlari, tibbiy fakultetlari va infratuzilmasining kengligi bilan izohlanadi.

Mazkur universitetlar ham endowment jamg'armalariga ega bo'lib, bu ularning moliyaviy mustaqillik darajasini ko'rsatadi. Michigan State University yana yetakchi o'rinda bo'lib, 3,78 milliard dollarlik endowment fondiga ega. Kansas University 2,1 milliard dollar bilan ikkinchi o'rinda turadi. Gonzaga University esa nisbatan kichikroq hajmga — 485,8 million dollarga ega, ammo bu uning xususiy xayriya mablag'lariga bog'liqligi va o'ziga xos boshqaruv uslubini aks ettiradi.

Yillik xayriya daromadlari bo'yicha ham Michigan State University yetakchilik qiladi — 133 million dollar. Bu daromadlar universitet infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash va stipendiyalar taqdim etishda muhim rol o'ynaydi. Kansas University 117,7 million dollarlik tushum bilan ikkinchi, Gonzaga University esa 37,6 million dollar bilan uchinchi o'rinda. Shunga qaramay, Gonzaga kichik hajmli universitet bo'lishiga qaramay, xayriya tushumlarining byudjetdagi ulushi sezilarli.

Gonzaga University filantropik mablag'larni asosan talabalar grantlari, infratuzilma va sport yo'nalishlariga yo'naltiradi. Bu, ayniqsa, talabalar tajribasini yaxshilashga qaratilgan strategiyani ko'rsatadi. Kansas University xayriya va endowment mablag'larini ilmiy loyihalar, stipendiyalar va innovatsion markazlarga yo'naltirib, ta'lim sifati va tadqiqot salohiyatini kuchaytirishga e'tibor beradi. Michigan State University esa mablag'larning katta qismini tibbiy tadqiqotlar, ilmiy laboratoriyalar va talabalar grantlariga sarflaydi. Bu ularning STEM (science, technology, engineering, mathematics) yo'nalishlariga ustuvorlik berayotganidan darak beradi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, endowment va xayriya mablag'lari universitetlar uchun moliyaviy mustaqillikni ta'minlovchi asosiy vositalardan biridir. Ular nafaqat byudjetni to'ldiradi, balki strategik rivojlanishni yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimi ham ushbu amaliy tajribadan o'rganib, endowment fondlari yaratish, bitiruvchilar va xususiy sektor bilan barqaror hamkorlikni rivojlantirish orqali moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilishni yo'lga

qo'yishi zarur. Bu esa oliy ta'limda sifat, barqarorlik va innovatsion rivojlanishni ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa (Заключение/Conclusion).

Oliy ta'limni moliyalashtirishda filantropiya strategik rol o'ynaydi. U nafaqat davlat mablag'larini to'ldiradi, balki adolat, innovatsiya va barqarorlik tamoyillarini ilgari surish orqali ta'lim tizimini sifat jihatidan yuksaltiradi. Universitetlar tomonidan cheklanmagan (unrestricted) hadyalar, ijtimoiy tenglikni ta'minlovchi dasturlar, va oliy ta'lim muassasasining missiyasi bilan mos strategik investitsiyalar asosida olib borilgan xayriya faoliyati keng ijtimoiy ta'sirga ega bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, donorlarning haddan tashqari ta'siri, qisqa muddatli natijalarga urg'u berilishi va moliyaviy mustaqillikka xavf soluvchi

omillar ham ehtiyotkorlik bilan boshqarilishi lozim. Universitetlar filantropik mablag'lardan foydalanar ekan, o'zining asosiy missiyasi va uzoq muddatli strategik maqsadlaridan chekinmasligi lozim.

Xayriyalarni boshqarishda ochiqlik, tenglikka asoslangan moliyaviy yondashuvlar va hamkorlikka tayangan siyosat yuritish oliy ta'lim muassasalarining manfaatlarini himoya qilish bilan birga, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi barqaror ta'lim tizimini shakllantirishga yordam beradi. Agarda bu tamoyillar to'g'ri yo'lga qo'yilsa, filantropiya va oliy ta'lim o'rtasidagi munosabat uzoq muddatli ijtimoiy harakatchanlik, ilmiy innovatsiya va barqarorlikni ta'minlovchi kuchli ittifoqqa aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. American Council on Education. (2019). Key issues facing higher education philanthropy. ACE. <https://www.tiaainstitute.org/>
2. Bulman, G. (2022). The causal effects of endowment wealth on financial aid generosity, student numbers, and admissions selectivity.
3. Chan, R. Y. (2016). Studying philanthropy and fundraising in the field of higher education: A proposed conceptual model. In *Philanthropy and fundraising in higher education* (pp. 1–22). IGI Global. <https://doi.org/10.4018/978-1-4666-9664-8.ch001>
4. Ely, S. (2024). Endowments: Management, impacts, and divestment. [Unpublished manuscript].
5. Gonzaga University. (2023). Independent auditor's report and consolidated financial statements for the years ended May 31, 2023 and 2022. <https://www.gonzaga.edu>
6. Haddad, A. (2021). Advocacy philanthropy in higher education: Intermediary organizations and policy involvement.
7. Kaplan, R. (2022). Trends in philanthropy for U.S. higher education.
8. Michigan State University. (2023). Administrative budget for the fiscal year 2023–2024. <https://www.msu.edu>
9. Osili, U. (2019). Key issues facing higher education philanthropy. American Council on Education.
10. Sanyal, B. C., & Johnstone, D. B. (2011). International trends in the public and private financing of higher education. *Prospects*, 41, 157–175. <https://doi.org/10.1007/s11125-011-9180-z>
11. University of Kansas. (2023). Executive summary: Fiscal year 2023 budget overview. <https://www.ku.edu>
12. Yakubov, M., & Daminova, B. (2022). Modernization of the education system in higher education institutions of the Republic of Uzbekistan. AIP Conference Proceedings, 2432(1). <https://doi.org/10.1063/5.0090347>.